FALSAFA

UDK: 316.356:37:2 **DOI: 10.56292/SJFSU/vol29_iss5/a19**

OILADAGI IJTIMOIY-MA'NAVIY MUHITNING FARZAND TARBIYASIGA TA'SIRI

ВЛИЯНИЕ СОЦИАЛЬНО-ДУХОВНОЙ СРЕДЫ В СЕМЬЕ НА ВОСПИТАНИЕ ДЕТЕЙ

INFLUENCE OF THE SOCIO-SPIRITUAL ENVIRONMENT IN THE FAMILY ON EDUCATION OF CHILDREN

[1]Karimova Gulchehra Abdukarimovna

[1]Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti gumanitar fanlar kafedrasi katta o'qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada Oila insonning baxt-saodatini ta'minlovchi qo'rg'on ekanligi asoslab berilgan bo'lib, uning ham ilohiy, ham insoniy himoyasi mavjud ekanligi izohlab berilgan. Oila inson zoti yaratilgandan boshlab davom etib, insoniyat tarixining hamma davrlarida, har qanday tuzum va sharoitda ham kishilarning asosiy hamda sharafli qadriyatlaridan hisoblangan. Oila dunyosi bir qator ma'naviy, axloqiy, ruhiy, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy munosabatlar mujassamlashgan bedahl makon bo'lib, yaxlit olganda, unda butun boshli tarix, millat, davlat o'z ifodasini topganligi bayon qilingan. Oila farovonligi – milliy farovonlik asosidir. Xalqimiz tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, halollik, rostgo'ylik, or–nomus, sharm-u hayo, mehr–oqibat, mehnatsevarlik kabi barcha insoniy fazilatlar oilada shakllanishi ochib berilgan. Ushbu tadqiqotda oilada otaning o'rni va mavqei izohlab berilgan. Tadqiqot jarayonida tizimli tahlil, "Oiladagi ijtimoiy-ma'naviy muhitining farzand tarbiyasiga ta'siri" mavzusida anketa so'rovnoma o'tkazilib, olingan xulosalar ushbu maqolada bayon qilingan.

Oilada farzand yo komil shaxs, yo xudbin inson bo'lib shakllanishiga o'z ta'sirini o'tkazadi. Bugungi kunda ham bu hikmatli so'zlarning ahamiyati o'z kuchini yo'qotmaganini ko'rishimiz mumkin. Ayniqsa, bugungi globallashuv davrida farzandlarimizni turli mafkuraviy xurujlardan himoya qilish, ularda yon-atrofda ro'y berayotgan voqea-hodisalarga daxldorlik tuyg'usini yuksaltirish, tinch-osoyishta hayotimizga, ko'p asrlik ma'naviyatimiz va milliy qadriyatlarimizga xavf tug'dirishi mumkin bo'lgan tajovuzlarga qarshi kurashishda ma'naviy-ma'rifiy targ'ibotlarning ahamiyati kun sayin ortib borayotganligi to'g'risida xulosa chiqarilgan.

Аннотация

В данной статье обосновывается, что семья является крепостью, обеспечивающей человеческое счастье, и поясняется, что она имеет как божественную, так и человеческую защиту. Семья продолжалась с момента сотворения человеческого рода и считалась одной из главных и почетных ценностей людей во все периоды человеческой истории, в любом строе и условиях. Мир в семье представляет собой сложное пространство, в котором воплощается ряд духовных, нравственных, социальных, экономических и политических отношений. Семейное благополучие – основа национального благополучия. Если обратиться к истории нашего народа, то обнаруживается, что все человеческие качества, такие как честность, правдивость, честь, стыд, доброта, трудолюбие формируются в семье. В этом исследовании объясняется роль и положение отца в семье. В ходе исследования был проведен систематический анализ, анкетирование на тему «Влияние социально-духовной среды в семье на воспитание ребенка», полученные выводы представлены в данной статье.

В семье на ребенка влияет то, что он становится либо совершенной личностью, либо эгоистичным человеком. Даже сегодня мы видим, что важность этих слов мудрости не утратила своей силы. Особенно в сегодняшнюю эпоху глобализации сделан вывод о том, что с каждым днем возрастает значение духовно-просветительской пропаганды в деле защиты наших детей от различных идеологических посягательств, повышения у них чувства сопричастности к происходящим вокруг событиям, в борьбе с посягательствами, которые могут поставить под угрозу нашу мирную жизнь, нашу многовековую духовность и национальные ценности.

Abstract

In this article, it is justified that the family is a fortress that ensures human happiness, and it is explained that it has both divine and human protection. The family has continued since the creation of the human race and has been considered one of the main and honorable values of people in all periods of human history, in any system and conditions. The world of the family is a complex space in which a number of spiritual, moral, social, economic and political relations are embodied. Family well-being is the basis of national well-being. If we look at the history of our nation, it is revealed that all human qualities such as honesty, truthfulness, honor, shame, kindness, hard work are formed in the family. In this study, the role and position of the father in the family is explained. In the course of the research, a systematic analysis, a questionnaire survey on the topic "Influence of the socio-spiritual environment in the family on child upbringing" was conducted, and the conclusions obtained are presented in this article.

In the family, a child is influenced to become either a perfect person or a selfish person. Even today we can see that the importance of these words of wisdom has not lost its power. Especially in today's era of globalisation, it is concluded that the importance of spiritual and educational propaganda in protecting our children from various ideological encroachments, in increasing their sense of ownership of events around them, and in combating encroachments that may endanger our peaceful life, our centuries-old spirituality and national values, is growing day by day.

Kalit so‘zlar: *Oila, ma’naviyat, Qur’oni Karim, ma’naviy-axloqiy muhit, oila farovonligi, ota mas’uliyati, er va xotin munosabati, farzand tarbiyasi.*

Ключевые слова: *Семья, духовность, Священный Коран, духовно-нравственная среда, семейное благополучие, ответственность отца, отношения между мужем и женой, воспитание детей.*

Key words: *Family, spirituality, Holy Qur'an, spiritual and moral environment, family well-being, father's responsibility, relationship between husband and wife, child upbringing.*

KIRISH

Oila insoning baxt-saodatini ta’minlovchi shunday bir qo‘rg‘onki, uning ham ilohiy, ham insoniy himoyasi bor. Oila inson zoti yaratilgandan boshlab davom etib, insoniyat tarixining hamma davrlarida, har qanday tuzum va sharoitda ham kishilarning asosiy hamda sharafli qadriyatlaridan hisoblangan.

Oila dunyosi bir qator ma’naviy, axloqiy, ruhiy, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy munosabatlar mujassamlashgan bedaxl makon bo‘lib, yaxlit olganda, unda butun boshli tarix, millat, davlat o‘z ifodasini topadi.

Oila farovonligi – milliy farovonlik asosidir. Xalqimiz tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, halollik, rostgo‘ylik, or- nomus, sharm-u hayo, mehr-oqibat, mehnatsevarlik kabi barcha insoniy fazilatlar oilada shakllangan.

Oila jamiyatning asosiy negizi. Oilalarimizda sog‘lom ijtimoiy-ma’naviy muhitni yaratish, ona va bola salomatligini muhofaza qilish, sog‘lom avlodni shakllantirish sog‘lom kelajak demakdir.

Oila muqaddas Vatan sanalgan. Agar oila sog‘lom va mustahkam bo‘lsa, mahallada tinchlik va hamjihatlikka erishiladi. Binobarin, mahalla-yurt mustahkam bo‘lsagina, davlatda osoyishtalik va barqarorlik hukm suradi.

Mehr-oqibat va hamjihatlik ota-onalardan farzandlarga ham qon-qarindoshlik, ham kundalik ma’naviy munosabatlar jarayonida o‘tuvchi his-tuyg‘ulardir. Ota va onaning bir-biriga ko‘rsatgan hurmat-ehtiromi, mehr-muhabbati ibrat namunasi sifatida farzandlarga yillar davomida singib boradi. Binobarin, farzandlar mehr-oqibatni, eng avvalo, oila tarbiyasidan o‘zlashtiradi. Olamga kelgan chaqaloq ilk bor tevaragini o‘rab turgan voqelik bilan oilasida tanishadi. «Xalqning aniq maqsad sari harakat qilishi, davlatmand bo‘lishi, baxtli bo‘lib izzat–hurmat topishi, jahongir bo‘lishi yoki zaif bo‘lib, xorlikka tushishi, baxtsizlik yukini tortishi, e’tibordan qolib, o‘zgalarga tobe va qul, asir bo‘lishi ularning o‘z ota-onalaridan bolalikda olgan tarbiyalariga bog‘liq»[1:125]. Farzand uchun dunyodagi eng etuk, komil, ulug‘ martabali inson ota-onasi hisoblanadi. Tabiiyki, eng go‘zal, yorug‘, baxtli xonadon ham o‘z uyi bo‘lib tuyuladi. Farzand oila tarbiyasidan jamoa hayoti sari asta-sekinlik bilan kirib kela boshlaydi, demak, uning katta hayot sari odimlari ota-onasi homiyligida amalga oshiriladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Bugungi kunda ham ana shu an’analarni davom ettirib, o‘zbek oilalari oilaning sog‘lom iqlimi, ota-onaning bir-biriga mehri va hurmati sharoitida, oila bag‘rida farzandlarini el- yurtining munosib o‘g‘il-qizlari, Vatanining haqiqiy sodiq fuqarosi bo‘lib voyaga etishlarida jon kuydirmoqdalar. Muqaddas dinimizda oilaga katta e’tibor berilib, uni qanday tashkil qilish, oila a’zolarining huquqlari, farzandlar tarbiyasi, oilada chiqadigan kelishmovchiliklarni muolaja qilish, umuman, oilaviy hayotning barcha masalalariga javob topish mumkin. Alloh taolo Qur’oni Karimning Rum surasi 21-oyatida marhamat qiladiki: “Uning alomatlaridan (yana biri) – sizlar (nafsni qondirish jihatidan) taskin topishingiz uchun o‘zlaringizdan juftlar yaratgani va o‘rtangizda inoqlik va mehribonlik paydo qilganidir. Albatta, bunda tafakkur qiladigan kishilar uchun alomatlar bordir”[2]. Oilali bo‘lish insoniyat naslining ko‘payishi va qiyomat kunigacha boqiy bo‘lishi uchun lozim bo‘lgan haqiqiy yo‘ldir. Islom dinida nikoh – bu Allohning amri, Payg‘ambar (s.a.v.) ning sunnatlari bilan, mo‘min-musulmonlarning guvohligida bog‘lanadigan muqaddas aloqa vositasidir[3:212]. Umr yo‘ldoshini tanlashda har ikki tomon ham teng huquqqa egadir. Nasl qoldirish vazifasi ham o‘zining andoza va qoidalari asosida amalga oshirilishi kerak. Bunda juftlarning har biri o‘zida xotirjamlik, sokinlik, nafsoniy rohat hosil qilishi bilan birga, ikkinchi tomonga nisbatan o‘z zimmasidagi burch va vazifalarini ham idrok etishi lozim. Ayniqsa, ikkisidan dunyoga keladigan naslning istiqboli to‘g‘risida ko‘proq qayg‘urishlari talab etiladi. Oila, hayotning abadiyligini, avlodlar davomiyligini ta’minlaydigan, muqaddas urf- odatlarimizni saqlaydigan, shu bilan birga, kelajak nasllar etishishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadigan tarbiya o‘chog‘idir. Biz “Oiladagi

ijtimoiy-ma'naviy muhitining farzand tarbiyasiga ta'siri" mavzusidagi olib borgan tadqiqotimiz davomida ko‘plab mahallaga, oilalarga kirib bordik.

Bugungi kunda ayrim oilalarda ma'naviy muhitning buzilishi, mehr-oqibat, hamjihatlikning yo‘qolib borishi, o‘zaro munosabatlarda salbiy tendensiyalarning kuchayib borishi sabablarini o‘rganishimiz jarayonida quyidagi holatlarni aniqladik:

birinchidan, oila a'zolari, avvalo, inson bolasi tug‘ilgan kunidan ona sutiga, oq o‘rab, oq tarashiga, otasining ta'minotiga va boshqa hayot talablariga ehtiyojli ekanligini unutmoqdalar yoki mazkur masalaga befarq bo‘lib borishmoqda;

ikkinchidan, er va xotin nikohlanib, oilali bo‘lgandan keyin ularning har biri ikkinchisi oldida bir qancha vazifani zimmasiga olishi mas'uliyatini anglamayotgani yoki suiiste'mol qilayotgani va ba'zi oilalarda:

oilada erkak kishining mas'uliyati, o‘z ahli ayoli oldidagi ham ijtimoiy, ham jismoniy, ham moliyaviy burchiga, farzandlar tarbiyasidagi ulushi va ta'siri, oila muhitining barqarorlashuvidagi ibrat va namunaning holati, oilada erkakning mavqeyi pasayib borayotgani;

ayol kishining oiladagi o‘rni, maqeyi, itoati va go‘zal xulqi, nafosati ro‘zg‘or boshqaruvidagi didi, farosati, farzandlar tarbiyasidagi mas'uliyati va salohiyati etishmayotgani;

uchinchidan, har bir shaxs, avvalo, oilaga e'tiborini ongli ravishda tubdan o‘zgartirishi kerak. Chunki oila a'zolarini, avvalo, ijtimoiy jihatdan himoyalash, e'zozlash, qo‘llab- quvvatlash – bu shaxsan uning o‘zini ertangi kuni va istiqboli uchun muhim va dolzarb ekanligini tushunishi va anglashi kerakligi;

to‘rtinchidan, ayrim oilalarda farzandlar tarbiyasi faqat onalar zimmasiga yuklangan, oila erkaklari, jumladan, otalar esa farzand tarbiyasiga bee'tibor bo‘lib borayotgani.

Oilada erkak kishining mas'uliyati alohida qayd etilgan. Erning o‘z xotini oldida ham ijtimoiy, ham jismoniy, ham moliyaviy burchi mavjud. Alloh taolo Qur'oni Karimning "Niso" surasi, 19 oyatida marhamat qiladiki: "... Ular bilan totuv turmush kechiringiz. Agar ularni yomon ko‘rsalaringiz, (bilib qo‘yingki,) balkim sizlar yomon ko‘rgan narsada Alloh (sizlar uchun) ko‘pgina yaxshilik paydo qilishi mumkin...."[4]. Darhaqiqat, islom dini o‘z ahli ayoliga nisbatan yaxshi munosabatda bo‘lgan erkaklarni insonlarning eng yaxshilari qatoriga qo‘shadi. Bu haqda Rasulullоh (s.a.v.) shunday deb marhamat qiladilarki: "Sizlarning ichingizdagi yaxshi erkak o‘z ahli ayoliga nisbatan yaxshi munosabatda bo‘lganidir. Men esa o‘z ahlimga sizlardan ko‘ra yaxshiroq munosabatdaman". Erkaklar o‘z ayollarining ayblarini berkitib, oilaning bardavom bo‘lishini ko‘zda tutgan holda ularga pand-nasihat qilib turishi buyuriladi. Payg‘ambarmiz (S.A.V.) marhamat qiladilar: "Hech bir mo‘min o‘z mo‘mina ayolini yomon ko‘rmasin. Agar uning xulq-atvoridan birini yoqtirmasa, boshqa xulqini yoqtirishi mumkin". Erkak kishining eng katta burchi o‘z qaramog‘idagilarning o‘zgalarga qaram bo‘lib qolishiga yo‘l qo‘ymaslikdir. Darhaqiqat, erkaklarning zimmasiga nafaqayi ahli ayol farzdir. Payg‘ambarimiz (s.a.v.) hadislarida: "Kishi qaramog‘idagilarini nafaqasiz tashlab qo‘yishi uning qattiq gunohkorligiga kifoya qiladi", deb marhamat qilganlar. Qur'oni karimda: "...Ularni (onalarni) me'yorida oziqlantirish va kiyintirish otaning (erning) zimmasidadir..."[5:], deb aytilgan. Hadisda, Abu Mas'ud al-Ansoriydan naql qilinishicha, Rasulullоh (s.a.v.) "Kishining topgan molini o‘z oilasiga sarflashi ham sadaqa va ehsondir", deganlar. Oila muqaddasligini ta'minlovchi birinchi omil – ona, ahli ayolning pokizaligi, oqilaligi, mehr-u muruvvati, sadoqati va vafodorligidir. Ayol kishi oilaning bir bo‘g‘ini hisoblanadi. Ayol erining itoatida bo‘lishi tufayli Parvardigorning roziligiga erishadi. O‘zini, erini va farzandlarini ham baxtli qiladi. Uyini esa to‘liqligicha muhabbat, sog‘lom turmush, rohat-farog‘at, omonlik va barqarorlik bilan ta'minlaydi. Ummu Sulaym (r.z.)dan rivoyat qilinadi, Payg‘ambarimiz (s.a.v.) marhamat qiladilarki: "Qaysi ayol eri undan rozi bo‘lgan holda o‘lsa, jannatga kiradi" (Ibn Moja rivoyati). Ayol erining mol-mulki va obro‘sini saqlashi va uyiga biror kishini erining ruxsatisiz kiritmasligi kerak. Nabiy (s.a.v.) aytganlar: "Sizlarga erkak kishida bo‘ladigan yaxshilik haqida xabar beraymi? U soliha ayoldirki, agar eri unga qarasa, xursand bo‘ladi, buyursa, itoat qiladi va biror joyga chiqsa, uning mol-mulkini muhofaza qiladi" (Abu Dovud).

Oila hayotning abadiyligini, avlodlar davomiyligini ta'minlaydigan, muqaddas urf-odatlarimizni saqlaydigan, shu bilan birga, kelajak nasllar etishishiga bevosita ta'sir ko‘rsatadigan tarbiya o‘chog‘idir.

Imom G‘azzoliy o‘zining "Ayyahul valad" ya'ni "Ey farzand" kitobida ota-onaning mas'uliyatiga shunday ta'rif berganlar: "Farzand kichik paytida ota-ona unga qo‘l-qanot bo‘ldilar. Yemadilar, edirdilar. Kiymadilar, kiydirdilar. Kenglik-tanglik, bor-yo‘q, issiq-sovuq demadilar. Xizmatdan qochmadilar"[6:35]. Oilada ota-ona farzand tarbiyasi jarayonini o‘z holiga tashlab

qo‘ymasligi kerak. Farzandini go‘dakligidan parvarish qilib, oq yuvib, oq tarab voyaga etkazib, uning kamoloti yo‘lida jon kuydirib, kasb-korlik, uyli-joyli qilishgacha bosh-qosh bo‘lishi ota-ona mehrining o‘ziga xos ko‘rinishidir. Ba’zi oilalarimizda o‘z bolasining tarbiyasiga loqayd ota – onalar borligi achinarli hol. Farzand tarbiyalayotgan ota-ona har bir harakati, yurish-turishi, muomalasi, boshqalar bilan o‘zaro munosabatida olijanob fazilatlarni namoyon eta bilishi kerak. Chunki bola tabiatan nihoyatda taqlidchan va kuzatuvchan bo‘ladi. Shuning uchun uning atrofdagilari o‘z odatlari bilan ba’zan o‘zlari sezmagan holda ularga ta’sir qiladilar. Oiladagi qo‘pol munosabatlar, ko‘p yolg‘on gapirish, yoqimsiz xatti-harakat bola tarbiyasiga salbiy ta’sir qiladigan nosog‘lom muhitni keltirib chiqaradi. Farzand tarbiyasida ota-onaning muomalasi muhim o‘rin tutadi. Bola ota-ona tomonidan qo‘pol, dag‘al so‘zlar eshitib, kaltak eb katta bo‘lsa, bu uning tabiatiga salbiy ta’sir qiladi. Bu esa, o‘z navbatida, oiladagi nosog‘lom muhitda tarbiyalanayotgan boladan “ma’naviy kasal” insonlar shakllanadi. Ular esa jamiyat ma’naviyatiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Oilada ota-onalar “ommaviy madaniyat” ta’siriga berilib ketishi oqibatida farzandlarning tarbiyasiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Albatta, bola tarbiyasi o‘ta murakkab va mas’uliyatlidir. Bu har bir ota-onadan o‘z ustida muntazam ishlashni, bolalar tarbiyasiga oid barcha ma’lumotlardan boxabar bo‘lib borishni talab etadi. Farzand tarbiyasi bu shunchaki tajriba, oddiy ko‘rsatma va bilimlar jamlanmasi emas, balki o‘z ichiga diniy-axloqiy bilimlar, tibbiyot, etika, psixologiya, pedagogika kabi sohalariga oid bilimlarni ham qamrab oladigan murakkab jarayondir.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Bugungi kunda oilaviy tarbiyaning qiyinlashuvi shundaki, birinchidan, jamiyat taraqqiy etib borgani sari har tomonlama etuk insonni shakllantirish talablari ortib boraveradi. Bu esa oilada bolaga estetik, jinsiy, axloqiy tarbiya berish sifati va ko‘lamini oshirish talabini qo‘yadi.

Ibn Sino bola tarbiyasi bilan uning tug‘ilishidan avvalroq, ona qornidan boshlaboq shug‘ullanish lozim, deb javob bergan. Yana shu so‘zga qo‘shimcha qilib taniqli pedagog A.S.Makarenko besh yoshgacha bo‘lgan tarbiya bolaning shaxsiyati shakllanishida o‘ta muhim ahamiyatga ega ekanini qayd etib o‘tgan. Bu haqda u shunday deb yozgan: “… tarbiyaning bosh asosi besh yoshda nihoyasiga etadi, demak, siz besh yoshgacha nima qilgan bo‘lsangiz, bu tarbiyaviy jarayonning 90 foizini tashkil etadi, keyingi tarbiya esa qayta tarbiyalash negizida davom etadi”. Jumladan, Imom Buxoriyning “Al-Adab al-Mufrad” hadislar to‘plami, Abu Lays Samarqandiyning “Tanbehul G‘ofiliyn” asarlarida farzandlarda yuksak insoniy fazilatlarni kamol toptirish tarannum etilgan. Yurtimiz ulamolari o‘z asarlarida farzandining chiroyli odobidan umid qilgan ota- ona uni muntazam ravishda husni xulq asosi bo‘lgan muomala odobining quyidagi qirralari bilan tanishtirib borishi muhim ekanini alohida ta’kidlaganlar:

– farzandingiz odamlar bilan muomala qilishda shirinso‘z, muloyim, va kamtar bo‘lishiga e’tibor qarating;

– odamlarning xursandchiligini baham ko‘rish, qiyin vaziyatlarda ularni qo‘lash, molk-mulkiga xiyonat qilmaslik, yaxshilikka chorlash va yomonlikdan qaytarish yaxshi, namunali xulq egalariga xos fazilatdir. Shuning uchun farzandlarigizga yoshlikdan ushbu fazilatlarni singdirib boring;

– farzandingizga boshqalar bilan muloqotda g‘iybat qilish, o‘zgalarni mensimaslik, nasl-nasabi, boyligi yoki mansabiga qarab muomala qilish ham odobsizlik ekanini uqtiring;

– katta yoshli kishilar, ustozlar bilan muomalada ularning ko‘ziga tik boqmaslik, gaplarini diqqat bilan tinglash, faqat savol berilganida javob qaytarish, toshiriqlarni sidqidildan bajarishni ham bolalar qalbiga jo qilishga e’tibor qarating.

Buyuk ajdodimiz Imom Termiziy rivoyat qilgan hadisda: **“Ota o‘z bolasiga chiroyli odobdan ko‘ra yaxshiroq narsa bera olmaydi”**[7:272] deb aytilgan. Ota-bobolarmiz azaldan o‘g‘il-qizlarning go‘zal xulqli, odobli bo‘lishiga katta ahamiyat berganlar. Binobarin, islom dinida ham axloq imon qatoriga qo‘yiladi.

Farzand tarbiyalashda, odatda, o‘g‘il bolalarni tarbiyalashga ko‘proq ota, qiz bolani tarbiyalashga esa ona mas’ul bo‘adi. Albatta, bunda farzandning saviyasi muhim sanaladi. Bolaning tezroq biror-bir natijaga erishishida shoshmaslik kerak. Misol uchun, bola ikki yoshga to‘lgunicha shirin so‘z va erkalash orqali tarbiyalanadi. Bola besh yoshgacha davrda atrofni o‘rganadi, asosiy ma’lumotlarni shu yosh oralig‘ida egallaydi. Bunda biz ko‘proq namuna bo‘lishga harakat qilamiz va bu jarayonda sog‘lom oilaviy muhitni yaratishimiz zarur bo‘ladi. Otaning bolalariga loqayd va befarqligi oxir oqibat xunuk oqibatlarni ketirib chiqarishi mumkin. Loqaydlik illat

hisoblanib, u bola tarbiyasining buzilishiga eng katta ta’sir ko‘rsatadigan omillardan biridir. Ota o‘z otalik burchi va vazifalarini ado etmagani va manfaatli ilm hamda kasb-hunarga o‘rgatmagani oqibatida o‘z farzandida zarur ijobiy xislatlarni shakllantira ololmaydi. Farzand ham otasining yaxshi tarbiyasidan mahrum bo‘lib o‘sadi. Keyingi davr esa ko‘proq talabchanlik va tartib-intizomni talab etadi. Bu davr o‘smirlik davri hisoblanib, bola aynan shu davrda oq-qorani ajratadi. Yaxshilik uchun mukofot, yomonlik uchun esa jazo muqarrarligini shu bosqichdan o‘rganadi. Bu davrda farzand tarbiyasi to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilsa, tarbiyali namunali do‘stlarga hamroh qilinsa, uning yaxshi xulq-odobli va yaxshi inson bo‘lishi uchun muhim qadam qo‘yiladi. Odatda onalar o‘z bolalarining xato va kamchiliklarini otasidan yashirishga harakat qiladilar. Aytsam, urishadi, bolamga qattiq tegadi deb, yo‘l qo‘ygan xatolari, qo‘l urgan yomon ishlarini otaga aytmaydilar. Oqibatda bola o‘z vaqtida tanbeh olmaganidan keyin bora-bora kattaroq jinoyatlarni ham qo‘rqmasdan qilaverishi mumkin. Mehr-muhabbat berishda ham me’yorni saqlay bilish kerak. Bolaning barcha aytganlarini qilish, barcha to‘g‘ri – noto‘g‘ri xatti-harakatlarini ma’qullash yoki hatto indamaslik farzandning umuman tarbiyasiz bo‘lib o‘sishiga olib keladi. Ortiqcha taltaytirib erkalash bolani har jihatdan sustlashtirib qo‘yadi, mehr ko‘rsatish esa uni yanada faol bo‘lishga undaydi. Erka o‘sgan bola faqatgina shaxsiy manfaatlarini ko‘zlaydigan, mas’uliyatsiz bo‘lib voyaga etadi. Shuning uchun farzandning barkamol inson bo‘lib etishishida onaning xizmati juda zarur va muhimdir. Bolalik chog‘ida farzandning qalbi o‘ta yumshoq va ta’sirga beriluvchan bo‘ladi. Bizda azaldan ota adolatli fikri, haq so‘zi, ibrati bilan oilaning ustuni, vijdoni bo‘lib kelgan. Bejiz xalqimiz “Ota rozi xudo rozi” demagan. Bugun ayrim oilalarda otalar o‘rni, hikmati sezilmayapti. Oilaviy munosabatlarda ma’naviy- axloqiy muvozanatning buzilayotgani, oilaviy ajrashishlar, jinoyatlar, mulkiy mojarolar ko‘payib borayotgani hammamizni tashvishlantiradi. Shunday ekan, oilaning butunligida otaning roli o‘ziga xos o‘rin tutadi. Chunki ona bolalariga har qancha mehribon bo‘lmasin, u ro‘zg‘or tebratishda, bola tarbiyalashda ota o‘rnini egallay olmaydi. Inson irodasi, his-tuyg‘ularining shunday qirralari borki, ular faqat ota o‘gitlari, ota tarbiyasi orqali vujudga keladi. Ayniqsa, birso‘zlilik, mehnat qilib rizq-ro‘z topish, oilani boshqarish, fidoyilik, sabr-toqatlilik xislatlarini tarkib toptirishda otalar ta’siri yaqqolroq ko‘zga tashlanadi. “Faqat otalargina bolalarini hayotdagi barcha og‘irliklarni aql-idrok, sabr-chidam, g‘ayrat va iroda bilan engib o‘tishga o‘rgata oladi. Ota irodasi farzandlarni biror mushkul ahvolda qolsa, ikkilanmaslikka, sarosimaga tushmaslikka o‘rgatadi”[8:64]. Tarixiy manbalarga murojaat qilinsa, Sharqda otaning oila va jamoada tutgan mavqeyi g‘oyat katta o‘rin egallaganligining guvohi bo‘lamiz. Avvalo, hadisi shariflarda, qolaversa, og‘zaki va yozma adabiyot namunalarida otaning sinchkov, sermulohaza, vazmin, birkesar, oqilona va odilona hukmi, talabchanlikka asoslangan tarbiyasi hamisha ko‘pchilikning diqqat-nazarida bo‘lganiga ishonch hosil qilamiz.

Dono xalqimizda “Otalar so‘zi – aqlning ko‘zi”, “Ota rozi – Xudo rozi”, “Ota amri – vojib” kabi hikmatli so‘zlar jamiyatda otalar mavqeyining nechog‘lik yuqori ekanini yana bir bor tasdiqlaydi.

Ota bosh bo‘lgan oilalarda tarbiyalangan bolalarda otadan ijobiy ma’noda hayiqish, uni hurmat qilish hissi shakllangan bo‘ladi. Mana shu narsa uni “chizilgan chiziq”dan nariga o‘tishidan, hayotimizda qabul qilingan turli ijtimoiy me’yorlarni buzishidan va, o‘z navbatida, turli ijtimoiy sanksiyalarga duchor bo‘lishidan saqlab turadi.

Ota farzandlarni iqtisodiy jihatdan ta’minlashi, ularning moddiy ehtiyojlarini qondirishi mumkin. Ammo ma’naviy jihatdan tarbiyalashga faqat onaning o‘zi ojizlik qiladi. Yuqorida aytib o‘tganimizdek, otaning tarbiyasi, ayniqsa, o‘g‘il bola uchun muhim. Pulga zoriqmaslik yoki nufuzli ta’lim muassasasi talabasi bo‘lish ham ota tarbiyasining o‘rnini bosolmaydi. Turli tashvishlar bilan ovora bo‘lib, bolalari bilan muntazam muloqotdan uzilib qolgan otalarning farzandlari tarbiyasida muayyan nuqsonlar paydo bo‘ladi. Bola hayotda to‘g‘ri maqsadni belgilay olmay tentirashi, to‘g‘ri yo‘ldan toyishi mumkin. Ba’zida bolaning nazoratsizlik oqibatida uyidan ketib qolishi yoxud turli salbiy ta’sirlar domiga tushib qolishi ham kuzatiladi. Bu esa nafaqat farzand, ota-ona yoki oila, balki butun jamiyat uchun ham noxush holatdir. “Oiladagi ijtimoiy-ma’naviy muhitining farzand tarbiyasiga ta’siri” mavzusidagi kuzatuvlarimizdan quyidagi xulosalarga keldik:

– ayrim oilalarda bolalarning tarbiyasi faqat onalar shug‘ullanadi, ota esa bu ishdan qoladi. Go‘yoki farzandini bog‘cha, maktab tarbiyalab berishi shart deb hisoblaydi. Qadimgi davrlarda o‘g‘il bolalar tarbiyasi bilan otalar, qiz bola tarbiyasi bilan esa onalar shug‘ullanganlar, biroq ular asosan erkaklar nazoratida bo‘lgan;

– ota-onalar bolalarga teng munosabatda bo‘lsalar, bolalar hayoti butun va mukammal bo‘ladi. Biri talabchan va qattiqo‘l bo‘lganida, ikkinchisi yonini olsa, tarbiya buziladi. Bolalariga

haddan ziyod mehribonlik qilayotgan ota-onalar ularni hurmat qilishdan oldin o‘zlarini ham hurmat qilishni o‘rgatishlari zarur;

– ko‘pgina ota-onalar bolalarini tarbiyalash borasida o‘z burch va vazifalari to‘la his qilmaydilar. Ko‘p hollar ularda pedagogik tayyorgarlik etishmaydi. Bola ayni paytda ta’sir obyekti va subyektdir. Biroq, ota-ona bola ana shunday obyekt ekanligini sezmasligi uchun harakat qilishi lozim. Ammo barcha ota-onalar har doim ham buni tushunib etmaydilar;

– oilaviy hayotni to‘g‘ri tashkil qilish, oilada sog‘lom ijtimoiy-ma’naviy muhitni yaratish lozim. Ijtimoiylashuv jarayonida har bir narsa bolaga ta’sir qiladi. Shunday ta’sirlar natijasida turlicha xulq-atvorlar paydo bo‘ladi. Ota-onalarning har bir xatti-harakatini bolalar bevosita kuzatadi. Shuning uchun bolaga u yoki bu ishni qil yoki qilma deb o‘rgatish yo‘li bilan tarbiyalayman, deb o‘ylamaslik kerak;

– har bir ota-ona farzandini barkamol inson bo‘lib voyaga etishini istaydi. Farzandining ana shunday inson bo‘lishidan nafaqat ularning o‘zi, balki jamiyat ham manfaatdordir. Ota-onaning fuqarolik burchi va mas’uliyati ham shuni taqozo etadi. Shunga ko‘ra har bir ota-ona, eng avvalo, mamlakat uchun bo‘lajak fuqaroni tarbiyalayotganini unutmasligi lozim;

– ota-ona shaxsining o‘zi bola tarbiyasida ularning oqilona o‘gitlari, pand-nasihatlarining hech biri ularning shaxsiy namunasi o‘rnini bosa olmaydi. Bolaning axloqiy tarbiyasida, oilaviy totuvlik, halollik va rostgo‘ylik, o‘zaro ishonchning mavjudligi, umuman sog‘lom ma’naviy-axloqiy muhit muhim ahamiyat kasb etadi;

– har bir oilada o‘ziga xos bo‘lgan an’analar mavjud bo‘lib, bu an’analar bola ongiga, dunyoqarashiga, uning xulq-atvoriga kuchli ta’sir qiladi. Masalan, oila a’zolarining tug‘ilgan kunlarini nishonlash, qarindoshlar holidan xabar olish va hokazolar;

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 77-moddasida “Ota-onalar va ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar o‘z farzandlarini voyaga etguniga qadar boqishi, ularning tarbiyasi, ta’lim olishi, sog‘lom, to‘laqonli va har tomonlama kamol topishi xususida g‘amxo‘rlik qilishga majburdirlar”, deb belgilab qo‘yilgan.

Davlat va jamiyat etim bolalarni hamda ota-onasining vasiyligidan mahrum bo‘lgan bolalarni boqishni, tarbiyalashni, ularning ta’lim olishini, sog‘lom, to‘laqonli va har tomonlama kamol topishini ta’minlaydi, shu maqsadda xayriya faoliyatini rag‘batlantiradi[9].

Oilaviy ajrashishlarning sabablari yuzasidan o‘tkazilgan fundamental, amaliy va innovatsion tadqiqotlar muammo aksariyat hollarda ma’naviy daraja, psixologiya va tarbiyaga bog‘liq ekanini ko‘rsatadi. Biroq iqtisodiy ma’noda ishsizlik, migratsiya, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash tizimining etarlicha yo‘lga qo‘yilmagani kabi muammolar ham vaziyatni o‘nglashda to‘siq bo‘layotganini ham unutmaslik kerak.

XULOSA

Shaxsni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda quyidagi axloqiy me’yorlarga asoslanish kutilgan samarani beradi:

– shaxsiy irodani irodani shakllantirish. Iroda, ichki his-tuyg‘u va muhim insoniy fazilatdir. Iroda kishida bilish, his qilish va chiniqish quvvatini hosil qiladi. Iroda oqali inson olam va odamni, voqea va hodisalarni idrok etadi, haqiqatni his qiladi, yaxshilik va yomonlik ta’siriga bardoshli bo‘ladi;

– shaxsni rostgo‘y, haqiqatgo‘y qilib voyaga etkazish. Rostgo‘ylik muhim axloqiy qadriyat sifatida insonnning ma’naviy-axloqiy qiyofasida muhim o‘rin tutadi. Rostgo‘ylik va haqiqatga intilish shaxga jamiyatda o‘z o‘rnini topishiga ko‘mak beradi. Shu ma’noda, rostgo‘yik shaxs xarakterini shakllantiruvchi omillardan biri hisoblanadi;

– insonparvar shaxsni tarbiyalash. Insonparvarlik shaxs faoliyatiga ta’sir ko‘rsatuvchi va uni baholovchi muhim axloqiy tamoyillardan biridir. Shaxsda insonparvarlik fazilati namoyon bo‘lmasa, jamiyatning ilg‘or kishisiga aylana olmaydi.

Axloqiy tarbiya “insonni etuk, go‘zal axloq egasi, jamiyatga foydasi tegadigan a’zoga aylantirish”, jarayoni bo‘lib, uni amalga oshirishda quyidagi tizimga amal qilish maqsadga muvofiqdir:

– ertak va hikoyalar orqali bolaga axloqiy qoidalarini tushuntirish;

– tarbiya beruvchining o‘zi ibrat bo‘lishi lozimligi. Tarbiyachining so‘zi bilan xatti-harakati uyg‘un bo‘lishi, uning xatti-harakati barchaga ibrat, o‘rnak, namuna bo‘lmog‘i lozim;

– muayyan ijtimoiy tuzum va muhitni hisobga olishda yomonning yomonligini, yaxshining yaxshiligini ko‘rsatish, axloqiy tarbiya real voqelik va amaliy jihatlari bilan ma’naviy-axloqiy muhitni muayyan darajada barqarorlashtiradi.

Mahallalar va oilalarda mehr-oqibat va hamjihatlikni mustahkamlash, turli illatlarga barham berish, oilaviy ajrashishlar va jinoyatchilikning oldini olish va boshqa dolzarb masalalarda davlat va jamoat tashkilotlari hamkorligini kuchaytirish zarur:

– oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash, oila muqaddasligini targ‘ib etish, yoshlarni oilaga tayyorlash, nizoli oilalardagi vaziyatni tartibga solish, o‘zaro munosabatlarni yaxshiashda yangicha yondashuvlarni qo‘llash;

– kam ta’minlangan oilalarni qo‘llab-quvvatlash va oiladagi zo‘ravonlikning oldini olish;

– oilada sog‘lom turmush tarzi, reproduktiv salomatlik, onalik va bolalikni muhofaza qilish;

– milliy va oilaviy qadriyatlarimizga bo‘layotgan ma’naviy tahdidlarga qarshi tizimli ishlarni olib borish;

– oilada farzandlar tarbiyasiga va, ayniqsa, qizlar tarbiyasiga e’tiborni yanada kuchaytirish;

– oilaviy va xotin-qizlar tadbirkorligi hamda bandligi masalalariga tizimli yondashuv;

– islom dinida oila, nikoh, farzand tarbiyasi, ota mas’uliyati va boshqa ijtimoiy masalalarning talqinini targ‘ib etish.

Oilada odob-axloq va ta’lim-tarbiyaga e’tibor qon-qonimizga singib ketgan burchlarimizdandir. “Bir bolaga etti qo‘shni ota-ona” degan ibratli maqol ham aynan xalqimizga xos. Mana shu maqolning o‘zi ham farzand tarbiyasi, oilaparvarlik biz uchun nechog‘lik muhim ekanini bildiradi. Mahalla ahli, ayniqsa, keksalar ko‘chada nobop ish qilayotgan bola oldidan hech qachon beparvo o‘tib ketmagan, shu zahotiyoq tanbeh berib, to‘g‘ri yo‘lga chaqirgan. Zero, har tomonlama chiroyli, odobli, go‘zal xulqli bo‘lish, nafsni poklashga buyuruvchi muqaddas dinimiz oilaga katta ahamiyat beradi. Oiladagi muhit ota-ona o‘z mas’uliyatlarini his qilishi bilan barqaror bo‘ladi. Bolalarning odobli bo‘lib ulg‘ayishi uchun ota- ona bilan bir qatorda mahalla-ko‘y ham katta ibrat maktabidir. “Qush uyasida ko‘rganini qiladi”, deb bejiz aytmagan xalqimiz.

Abdulla Avloniy ta’kidlashicha, bolaning sog‘lom va zehnli tarbiyalanishida dastlab oila va ota-onalar asosiy tarbiya kuchi hisoblanishadi. Bolaning har tomonlama barkamol bo‘lishida dastlab oilada ota-onalar murojaat qiladi va ulardan shaxsiy namuna oladi. “Inson javhari qobildir, agar yaxshi tarbiya topib, buzuq xulqlardan saqlanib, go‘zal xulqlarga odatlanib katta bo‘lsa, har kim qoshida maqbul, baxtiyor bir inson bo‘lib chiqar...”[10:120]. Demak, olim bola tarbiyasida oilaning rolini birlamchi darajaga qo‘yadi. “Tarbiyani kim qilur? Qanday qilinur?” degan savol keladi. Bu savolga birinchi uy tarbiyasi – ona vazifasidir. Ikkinchi, maktab va madrasa tarbiyasi – bu ota, muallim, mudarris va hukumat vazifasidir, degan javob bersak”[11:184]. Ko‘rinib turibdiki, Abdulla Avloniy bolaning mukammal tarbiyasida oila va ota-onani alohida ko‘rsatish bilan birga maktab va jamoat tashkilotlariga ham bog‘liqligini e’tirof etib, tarbiya masalasini umuminsoniy vazifalar darajasida talqin etgan.

Darhaqiqat, oilada farzandga berilayotgan tarbiya uning kelgusida kim bo‘lib etishishini ta’minlaydi. Oilada farzand yo komil shaxs, yo xudbin inson bo‘lib shakllanishiga o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Bugungi kunda ham bu hikmatli so‘zlarning ahamiyati o‘z kuchini yo‘qotmaganini ko‘rishimiz mumkin. Ayniqsa, bugungi globallashuv davrida farzandlarimizni turli mafkuraviy xurujlardan himoya qilish, ularda yon-atrofda ro‘y berayotgan voqea-hodisalarga daxldorlik tuyg‘usini yuksaltirish, tinch-osoyishta hayotimizga, ko‘p asrlik ma’naviyatimiz va milliy qadriyatlarimizga xavf tug‘dirishi mumkin bo‘lgan tajovuzlarga qarshi kurashishda ma’naviy–ma’rifiy targ‘ibotlarning ahamiyati kun sayin ortib bormoqda. Bunda esa, avvalo, otalarimizning o‘rni va ular tarbiyasi asosiy o‘rinni egallaydi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Мирзиёев Ш.М. “Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом этириб, янги босқичга кўтарамиз” ("We will resolutely continue our path of national development and raise it to a new level"). –Тошкент.: «Ўзбекистон», 2017. – Б. 125.
2. Абдулазиз Мансур. Қуръони Карим маъноларининг таржима ва тафсири (Translation and interpretation of the meanings of the Holy Qur'an). 4-қайта нашр. –Тошкент.: “Шарқ” НМАК, 2012.
3. Алимов У. “Расулуллоҳ (соллаллоҳу алайҳи ва саллам)нинг муборак васиятлари” ("Blessed Wills of the Prophet (peace and blessings of Allah be upon him)" (1-жилд) –Тошкент.: “Мовароуннаҳр”, 2017. – Б. 212.
4. Абдулазиз Мансур. Қуръони Карим маъноларининг таржима ва тафсири (Translation and interpretation of the meanings of the Holy Qur'an). 4-қайта нашр. –Тошкент.: “Шарқ” НМАК, 2012.
5. Қуръони Карим Бақара сураси 233-оят (Holy Qur'an, Surah Baqara, verse 233).

6. Имом Ғаззолий “Эй фарзанд” (“O child”). Йўлдош Эшбеков таржимаси. –Тошкент.: “Мовароуннаҳр”, 2005. – Б. 35.

7. Xolid Mansur Abdulloh ad-Daris. Mavqifu al-imamayni al-Buxoriy va Muslim min ashroti-l-liqya va-s-simo’. –B 272.

8. Юсупов Э., Юсупов Ў. Оила – маънавият булоғи (Family is the source of spirituality). Тўплам, Ўзбек миллий қадриятлари илмий-тадқиқот Маркази. – Тошкент, 2003. – Б. 64.

9. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси (Constitution of the Republic of Uzbekistan). Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 01.05.2023-й., 03/23/837/0241-сон. Мурожаат қилинган сана 23.06.2023.

10. Abdulla Avloniy Turkiy guliston yoxud axloq (Turkish gulistan or morals). Islom odobidan namunalar. T., 1993. — B. 120 b.

11. Мусурманова А. Фарзандларимга насиҳатлар (Advice to my children). Монография. – Тошкент.: “Ёшлар нашриёт уйи”, 2020. – Б. 184.